

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.FM.70.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI**

SHIRINOV GANJIMUROD MAMIR O'G'LI

**ION IMPLANTATSIYA USULI YORDAMIDA GaP YUZA VA YUZA OSTI
QATLAMLARIDA HOSIL QILINGAN UCH KOMPLEMENTLI
NANOTUZILMALARNING TARKIBI, TUZILISHI VA FIZIK
XUSUSIYATLARINI O'RGANISH**

01.04.04 – Fizik elektronika

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctoral philosophy (PhD) on
physical-mathematical sciences**

Shirinov Ganjimurod Mamir o'g'li

Ion implantatsiya usuli yordamida GaP yuza va yuza osti qatlamlarida hosil qilingan uch komponentli nanotuzilmalarning tarkibi, tuzilishi va fizik xususiyatlarini o'rganish..... 5

Ширинов Ганжимурод Мамир угли

Исследование состава, структуры и физические свойства трех компонентных наноразмерных систем, созданных на поверхности и приповерхностной области GaP методом ионной имплантации..... 25

Shirinov Ganjimurod Mamir ugli

Study of the composition, structure, and physical properties of three-component nanoscale systems created on the surface and near-surface region of GaP by ion implantation..... 47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 51

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.FM.70.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI**

SHIRINOV GANJIMUROD MAMIR O'G'LI

**ION IMPLANTATSIYA USULI YORDAMIDA GaP YUZA VA YUZA OSTI
QATLAMLARIDA HOSIL QILINGAN UCH KOMPLEMENTLI
NANOTUZILMALARNING TARKIBI, TUZILISHI VA FIZIK
XUSUSIYATLARINI O'RGANISH**

01.04.04 – Fizik elektronika

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/FM766 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (резюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Donayev Sardor Burxonovich fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Egamberdiyev Baxrom Egamberdiyevich fizika-matematika fanlari doktori, professor Raxmonov G‘aniboy Tadjiyevich fizika-matematika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2021.FM.70.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025 “_____” _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 180119, Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04, faks: (+998 75) 220-02-10, e-mail: kasu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti majlislar zali.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi
(2025-yil “_____” _____ dagi № _____ raqamli reestr bayonnomasi).

M.T. Normuradov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
fizika-matematika fanlari
doktori, professor

G.X. Allayarova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi
fizika-matematika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori,
PhD

A.K. Tashatov
Ilmiy kengash xuzuridagi
ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy seminar raisi,
fizika-matematika fanlari
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda $A^{III}B^V$ va $A^{II}B^{VI}$ birikmali binar yarimo'tkazgichli materiallar asosidagi ko'p qatlamli tizimlar va nanoo'lchamli sturukturalar olish, ular asosida nano- va optoelektron qurilmalarni ishlab chiqarish yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida GaP, GaInP, AlGaInP strukturalarga ega bo'lgan ko'p qatlamli tizimlar olish ularning fizik xossalarini o'rganish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy etishni taqazo qiladi. Bu esa lazer diodlari, quyosh elementlari, fotoelektron va optoelektron qurilmalarini ishlab chiqarish imkonini beradi. Shu sababli taqiqlangan zona kengligi boshqariladigan $Ga_{1-x}Al_xAs$, $Ga_xIn_{1-x}P$ birikmali uch komponentli qattiq materiallarni olishga alohida e'tibor qaratilmoqda. GaP va GaAs asosidagi nanoklasterli fazalar, nanoo'lchamli ko'p qatlamli sturukturalar, yupqa plyonkalar va getorostrukturalarni olish va uning tarkibini, strukturasini, emission va optik xossalarini o'rganish, hozirgi kunda fizikaviy elektronika sohasida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda nanoo'lchamli materiallar, ko'p komponentli va ko'p qatlamli strukturali tizimlar bilan bog'liq bo'lgan ilmiy-tadqiqot ishlarini o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu tadqiqotlar asosan fundamental va amaliy yo'nalishlarda olib borilib, nanoelektronika, optoelektronika, fotoelektrika va boshqa zamonaviy yo'nalishlar uchun yangi texnologiyalarni yaratishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, kelajakda zamonaviy qurilmalarni ishlab chiqarish uchun bunday murakkab strukturalarning shakllanish mexanizmlari, ularning fizik-kimyoviy, elektr, optik va emissiya xossalarini o'rganish orqali orqali amalga oshiriladi. Shu sababli zamonaviy elektron texnologiyalarning yangi yo'nalishlarini yaratish, ishlab chiqish, ularning amaliy imkoniyatlarini baholash, hamda sanoatga joriy qilish uchun olib borilayotgan ilmiy izlanishlar bugungi kunda ilmiy hamjamiyat oldida turgan dolzarb va ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, quyosh energetikasi sohasi bugungi kunda jahon energetika bozorida ekologik toza va qayta tiklanadigan manba sifatida keng qaralmoqda. Yuqori samaradorlikka ega fotoelektrik elementlar, quyosh batareyalari va boshqa energiya manbalarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq qilish sohalarida innovatsion yechimlarni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda innovatsion texnologiyalarni iqtisodiyotga joriy etish, energiya samaradorligini oshirish va resurs sarfini kamaytirish muhim strategik yo'nalish sifatida belgilangan va bu vazifalarni amalga oshirishda keng qamrovli chora-tadbirlar olib borilgan va muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasida, jumladan "...yangi turdagi mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar yaratishning g'oyadan yakuniy iste'molchigacha bo'lgan kompleks tizimini ta'minlash orqali innovatsiyalarga bo'lgan talabni rag'batlantirish"¹ vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, fizik elektronika sohasida binar yarim o'tkazgichli materiallarining yuza va yuza osti sohalarida nanoo'lchamli

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.07.2022-yildagi PF-165-son.

strukturalarni olish, ularning shakllanish mexanizmlarini, qonuniyatlarini chuqur o'rganish, ayniqsa, bunday strukturalar asosida ko'p qatlamli nanoo'lchamli tizimlarni olishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday murakkab fizik xossalarga ega nanoo'lchamli ko'p qatlamli strukturalarni olish va tadqiq qilish ilmiy jihatdan dolzarb bo'lishi bilan birga, zamonaviy nanoelektron qurilmalarni ishlab chiqarishda muhim amaliy ahamiyatga ega. Shunga qaramay, hozirgi vaqtda ion implantatsiya va qattiq fazali epitaksiya usullari yordamida galliy fosfid (GaP) asosidagi nanoo'lchamli fazalar va ko'p qatlamli strukturalar olish, ularning fizik-kimyoviy xossalarni o'rganish orqali muhim ilmiy natijalarga erishish va yangi usullarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28- fevraldagi PF-60-son farmoni, 2021-yil 2-martdagi PQ-5011-sonli qarori va 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-sonli qarori kabi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, elektrotexnika sanoatini rivojlantirish, mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, fizika sohasidagi ta'lim sifatini yaxshilash va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish kabi vazifalarni belgilaydi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"², O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"³ farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasining ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishga oid II ustuvor yo'nalishi – "Fizika, astronomiya, energetika va mashinasozlik" hamda III ustuvor yo'nalishi – "Zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika, elektron asboblarni rivojlantirish" sohalari bo'yicha amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyoning yetakchi mamlakatlari ilmiy markazlari, institutlari va universitetlarida binar yarimo'tkazgich asosidagi ko'p komponentli materiallarning fizik-kimyoviy xususiyatlari intensiv o'rganilmoqda.

Xususan, MNE (molekulyar nurli epitaksiya) usuli bilan olingan GaP plyonkasining strukturasi va xususiyatlari hamda uning uch komponentli birikmalari GaP/Si: geteroo'tishlari asosidagi quyosh elementlarini olish imkoniyatlari, $A^{III}B^V$ plyonkasi asosidagi ko'p komponentli va ko'p qatlamli nonosistemalarning struktura xususiyatlari yaxshi o'rganilgan. Ispanyalik olim S. Pablo GaAsP asosidagi tandem quyosh elementlarini olgan va xususiyatlarini o'rgangan. GaAsP/Si tipidagi tandem quyosh elementlarining FIK nazariy jihatdan 41,9% gacha yetishi asoslab berilgan.

Rus olimlari A.A. Lazarenko, M.C. Sobolov va boshqalar MNE (molekulyar nurli epitaksiya) usuli orqali Si taglik ustida GaPN va GaPAsN qatlamlarini o'z

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.10.2020-yildagi PF-6097-son.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son.

ichiga olgan geterostrukturalarni bosqichma-bosqich yaratishni taklif qilishgan. Yapon olimlari Moon S.Y., Yonezu H., Furukawa Y., Wakahara A. lar to'g'ri zonali (прямозонных) GaP(As)N va InGaPN materiallaridan foydalanib, Si ning panjara doimiysiga yaqin bo'lgan elektron qurilmalar panjara doimiyligi turli xil geterostrukturalarni olish imkoniyati mavjudligini ko'rsatishgan. Nemis olimlari R. Saive va boshqalar GaP/Si chegarasida kuchli fotokuchlanish tushuvini aniqladilar. Umuman olganda, bu ma'lumotlar Si va GaP o'rtasidagi chegarada zaryad tashish to'sig'i mavjudligini ko'rsatadi, chunki chiziqlarning noqulay joylashishi GaP/Si geteroo'tishli quyosh elementlarining past bo'lishiga sabab bo'ladi. Rus olimlari Malik A.I va Grushkova G.G. lar GaP va Si dan epitaksial aynimagan p-n o'tishlarda ortiqcha tunnel tokini o'rganishdi. Ular quyidagi muhim eksperimental VAX qiyaqligining (In ning I-V kordinatalarida) fazoviy zaryad sohasiga bog'liq emasligini, ya'ni keltirilgan maqolalar bilan n- va p- sohali legirlanish darajasini tushuntirib bo'lmasligini aniqladilar. X.B. Cheng va akademik J.I. Alferovlar lazerlarda va turli xil optoelektron qurilmalarda qo'llaniladigan GaAs va GaP asosidagi ko'p qatlamli davriy geterostrukturalarni olishdi. Ular kvant nuqtali va plyonkali geterostrukturalar yarimo'tkazgich kristallar parametrlarini, yani taqiqlangan zona kengligini, effektiv massasini va zaryad tashuvchilar harakatchanligini boshqarish mumkinligini ko'rsatib berishgan.

M.T. Normurodov, B.E. Umirzakov va ularning shogirtlari birinchi marta yuqorida keltirilgan fizik xususiyatlarga ega va nanostrukturalarni olishgan va ularning shakllanish mexanizmlarini aniqlashgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishida keltirilgan tadqiqotlar davlat ilmiy-texnik dasturlar doirasida AL-592102410 "Fazalararo mikro – nano pufakli guruhlar asosida minerallarni flotatsiyalashda konditsiyalashning samarali texnologiyasi va uskunalari tadqiq etish" (2022-2024) nomli amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. GaP monokristalining yuza va yuza osti sohalarida nanoo'lchamli strukturalar va qatlamlarni olish, ularning tarkibini, elektron va kristall strukturasi, emission, optik va elektrofizik xususiyatlarini kompleks o'rganish mexanizmlarini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kichik energiyali In^+ ionlari implantatsiyasining GaP(111) monokristalli tartibi, elektron strukturasi va fizik xususiyatlariga ta'sirini va GaInP nanoplyonkalar asosiy shakllanish mexanizmlarini aniqlash;

kichik energiyali ionlar implantatsiyasi va ketma-ket toblash natijasida GaP yuzasida shakllangan uch komponentli nanoplyonkaning emission xususiyatlarini, elektron strukturasi, foto va haqiqiy ikkilamchi elektronlar xususiyatlarini chiqish chuqurliklarini aniqlash;

CaF₂ yuzasida A^{III}B^V tipidagi nanoplyonkalarni hosil qilish uchun yuqori muvofiqlashtiruvchi qatlamini, ion bombardirovka usulidan foydalangan holda GaP(111) yuzasida nanokontaktlarni olish imkoniyatlarini o'rganish hamda

elektron bombardirovkaning GaP(111) tarkibiga va yuzaviy strukturasi ta'sirini kuzatish natijasida yuz tarkibining asosiy o'zgarish mexanizmlarini aniqlash;

turli xil ta'sirlarning (ion va elektron bombardirovka, lazerli nurlatish) GaP hajmiy (ρ_v) va sirtiy (ρ_c) solishtirma qarshiliklariga ta'sirini va arsenid asosida $A^{III}B^V$ tipidagi ko'p qatlamli nanoo'lchamli geteroepitaksial sistemalarni olish imkoniyatlarini o'rganish.

Tadqiqotning obyekti GaP plyonkasi va monokristall namunalari.

Tadqiqotning predmeti ion implantatsiya natijasida GaP yuzasida monokristall va nanoplyonkalar shakllanish qonunlari va fizik mexanizmlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Oje – elektron spektroskopiyasi (OES), elastik qaytgan elektronlar spektroskopiyasi (EQES), xarakterli energiyasini yo'qotgan elektronlar spektroskopiyasi (EXYES), ultrabinafsha fotoelektron spektroskopiyasi (UBES), tez elektronlar difraksiyasi (TED) va rastorli elektron mikroskopiyasi (REM) usullaridan foydalanilgan holda tadqiq qilingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk marotaba GaP(111) yuzasiga In^+ ionlarini implantatsiya qilish va keyingi qizdirish orqali yuzada 30-35 Å qalinlikdagi $Ga_{0,6}In_{0,4}P$ nano-kristall fazalar va plyonkalar tahlil qilinib, GaInP nanofazalarini qalinligi $h \approx 30-35$ Å va yuz diametri $d \leq 20-35$ nm bo'lgan holatlarda taqiqlangan zona kengligining ortishi, hamda kvant-o'lchamli effektlar hosil bo'lishi aniqlangan;

ilk marotaba $Ga_{0,6}Al_{0,4}P$ va $Ga_{0,6}In_{0,4}P$ nanoplyonkalarining valent elektronlar holatlari zichligi va energetik zonalari parametrlari hamda bu plyonkalarining epitaksial o'sishi aniqlangan;

ilk marotaba GaAs/CaF₂ tizimi uchun CaF₂ yuzasida $Ca_{1-x}Sr_xF_2$ nanoo'lchamli muvofiqlashtiruvchi qatlamlar olingan;

ilk marotaba GaP namunasini Ar^+ ionlari bilan bombardimon qilib, qalinligi 40-45 Å bo'lgan Ga qatlami hosil qilinib, uning yuzasiga Ni atomlari o'tqazilib o'ta yupqa omik kontaktlar hosil qilish mumkinligi aniqlangan;

ilk marotaba In^+ ionlari implantatsiyasi yordamida GaInP/GaP/GaInP/GaP tipidagi ikki qatlamli tizim hosil qilingan, uning tuzilishi, taqiqlangan zonalarning kengligi aniqlanib tizimining energetik zonalari diagrammasi yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

GaP(111) sirtini Ar^+ ionlari bilan bombardimon qilish yo'li bilan qalinligi qilish orqali 300 Å dan kichik bo'lgan o'tayupqa omik kontaktlar olingan;

GaP uchun ion va elektronlar bilan bombardimon qilish, lazerli nurlatish orqali, uning sirtiy ρ_c va hajmiy ρ_v solishtirma elektr qarshiliklariga ta'siri o'rganilgan. Yuqoridagi ta'sirlar GaP ning ρ_c qiymatlari 100-150 martagacha kamayishiga olib keldi, lekin ρ_v ning qiymati sezilarli o'zgarmaganligi aniqlangan;

GaInP/GaP/GaInP/GaP tipidagi tandem ko'p qatlamli tizimlar yordamida, energiya o'zgartirgich qurilmalar olish imkoniyatlari keltirib o'tilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Yuqori vakuum sharoitida zamonaviy elektron spektroskopiyasi va yuzani yuqori aniqlikda tahlil usullaridan foydalanib olingan tadqiqot natijalari boshqa mualliflarning ma'lumotlari bilan yaxshi muvofiqligi bilan ta'minlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati GaP yuzasiga In^+ ionlari implantatsiyasi natijasida GaInP tipidagi nanoo'lchamli strukturalarning shakllanish mexanizmlari va uchkomponentli qatlamlar hosil bo'lishida Ar^+ ionlari bilan ishlov berishning ular tarkibi, elektron strukturasi, emission va optik xususiyatlariga ta'siri o'rganilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati GaInP yuzasida qalinligi $h \approx 30-35 \text{ \AA}$ va sirt diametri $d \leq 20-25 \text{ nm}$ bo'lgan kvant-o'lchamli effektlar paydo bo'lishi aniqlandi. GaP yuzasini turli energiya va dozadagi Ga va P atomlarining elektronlar bilan bombardimon qilganda chuqurlik bo'yicha taqsimlanish konsentratsiyasi aniqlandi. $E_e \leq 5-6 \text{ keV}$ da GaP ning yuza sohasi atomlariga, $E_e \geq 5-6 \text{ keV}$ da esa Ga atomlariga boyishi kuzatildi. Ushbu natijalar nano- va optoelektron asboblarni yaratish uchun yangi yarimo'tkazgich – dieliktrik – yarimo'tkazgich va metall – dieliktrik – yarimo'tkazgich strukturalarni olishda juda muhimligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ion implantatsiya usuli yordamida GaP yuza va yuza osti qatlamlarida hosil qilingan uch komponentli nanotuzilmalarning tarkibi, tuzilishi va fizik xususiyatlarini o'rganishda olingan natijalar asosida:

CaF_2 yuzasida GaAs/ CaF_2 sistemasi uchun $\text{Ca}_{1-x}\text{Sr}_x\text{F}_2$ nanoo'lchamli muvofiqlashtiruvchi qatlam olish natijalari Toshkent davlat texnika universitetida 2022–2024-yillarda bajarilayotgan AL-202102215 “Ferromagnit nanoklasterli Si bilan aylanma saraton hujayralarni tutib qoluvchi mikro suyuqlik kanalli integrallashgan tizim” mavzusidagi O'zbekiston-Turikiya qo'shma amaliy loyahasini bajarishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 24-sentyabrdagi 4/17-4/4-18162-son ma'lumotnomasi). Natijada kremniy hajmi bo'yicha olingan Mn atomlari magnit nanoklasterlarning konsentratsiyasini, Mn, Eu va Gd elementlari atomlarinig magnit nanoklasterlarni kremniy yuzasida shakllantirish hisobiga oshirib, mavjudlariga nisbatan 4 barobar yuqori magnit xususiyatli kemniyni olishga erishilgan;

In^+ ionlari implantatsiyasi usulidan foydalanilgan holda toblanish (lazerda qizdirish) bilan birgalikda GaP(111) yuzasida 30-35 \AA qalinlikdagi $\text{Ga}_{0.6}\text{In}_{0.4}\text{P}$ nanokristall fazosi va plyonkasi olinganligidan “Foton” AJ da shu material asosida yarim o'tkazgichli elementlarni yaratishda foydalanilgan (“Uzeltexsanoat” AJ dan 2024-yil 23-sentabrdagi 04-3/1598-sonli ma'lumotnoma). Tadqiqot natijalaridan foydalanish, yarim o'tkazgichli elementlarni yaratishda ishlatilayotgan materiallarni 2 barobarga tejash imkoniyatini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (Respublika miqyosidagi, xorijiy jurnalda va Scopus ma'lumotlar bazasidagi jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya matni 106 bet matndan, shu jumladan, 61 ta rasm va 7 ta jadvaldan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI



Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslab berilgan, muommoning o'rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot ishining Respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlari bilan o'zaro bog'liqligi keltirilgan dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi va ishning aprotatsiyasi haqida ma'lumot keltirilgan, shuningdek, dissertatsiya hajmi va tuzilishi to'g'risida yoritib o'tilgan.

Dissertatsiyaning **“Molekulyar nurli epitaksiyali GaP plyonkalari va ular asosidagi uchkomponentli plyonkalarining tarkibi, strukturasi va xususiyatlari”** deb nomlangan I bobida, kichik energiyali In^+ ionlari implantatsiyasining GaP(111) monokristalining tarkibi va elektron strukturasi ta'sirini o'rganishga, GaInP/GaP ning emission, optik va elektrofizik xususiyatlarini o'rganishga, kichik energiyali ionlar implantatsiya va keyingi qizdirish natijasida GaP yuzasida shakllangan uch komponentli nanoplyonkalarining emission xususiyatlari va elektron tuzilishiga, GaF₂ yuzasida $\text{A}^{\text{III}}\text{B}^{\text{V}}$ tipidagi plyonkalarini olish uchun yuqqa muvofiqshiruvchi qatlam olishga bag'ishlangan. Bob oxirida dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib adabiyotlar sharhiga xulosasi, maqsadi va vazifalari keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Eksperimental tadqiqotlar metodikasi”** nomlangan II bobida kichik energiyali ion bombardirovkasi va o'ta yuqori vakuum sharoitida atomlarni changlatish orqali o'tqazib keyingi qizdirish (qizdirish, lazerli qizdirish, qizdirishning lazerli qizdirish) usullaridan foydalanib GaP plyonkasi va monokristalining yuza va yuza osti sohalarida nanoo'lchamli strukturalarni olishga bag'ishlangan. Tadqiqotlar OES, IIMS, XEYO'ES, UBES, TED, REM, AKM, yorug'likning yutilish spektroskopiyasi va IEE koeffitsiyentlarining energiyaga bog'liqligini qayd qilish usullari yordamida amalga oshirilgan. Asosiy tadqiqotlar, ya'ni barcha texnologik ishlov berishlar (ion implantatsiya, atomlarni o'tqazish, qizdirish) va materiallarning tarkibi, tuzilishi, optik va emission xususiyatlari universal o'ta yuqori vakuumli qurilmada ($P \approx 10^{-7}$ Pa) olib borildi.


Dissertatsiyaning **“Monokristall GaP asosida uch komponentli nanostrukturalar olish va ularning fizik xususiyatlarini o'rganish”** deb nomlangan III bobida Al^+ va In^+ ionlari implantatsiyasi va keying qizdirish usullari yordamida GaP yuzasida yuqqa monokristall GaAlP va GaInP plyonkalarini olishga bag'ishlangan. Oje – elektron spektroskopiya, yorug'lik yutilishi va ikkilamchi elektronlar koeffitsiyentlarining energiya va burchak bog'liqliklarini olish usullari orqali birinchi marta ≤ 50 Å qalinlikdagi Ga_{0.6}Al_{0.4}P/GaP(111) va Ga_{0.6}In_{0.4}P/GaP(111) nanoplyonkalarining asosiy energetik soha parametrlari va emission parametrlari aniqlandi. 1(a,b)-rasmda Mo(111) yuzasida olingan 1000 Å qalinlikdagi yaxshi tozalangan GaAs va GaP plyonkalarining rentgen fazali spektrlari keltirilgan. Rasmlarning yuqori qismida o'rganilayotgan plyonkaning Match! Phose analysis Report dasturida hisoblangan fazaviy va elementar tarkibi (macc. %) keltirilgan. Rasmdan GaAs(111) va GaP(111) plyonkalari tarkibining

(mass. %) bir xilligi va stexiometrigini ko‘rish mumkin. Ushbu plyonkalarining panjara doimiylari mos ravishda 5,5 Å va 5,6 Å ni tashkil qildi hamda monokristall GaAs va GaP ning ma’lumotlari to‘liq mos keldi.




1-rasm. Yaxshi tozalangan plyonkalarining rentgenogrammalari: a – GaAs(111), b – GaP(111). Diagrammaning yuqori qismida plyonkalarining fazoviy va elementar tarkiblari keltirilgan.

Ion implantatsiyadan oldin GaP(111) o‘tayuqori vakuum sharoitida ($P=10^{-7}$ Pa), $T=900$ K haroratda ~ 4 soat davomida tozalangan. 2-rasmda $E_0=1$ keV energiyali $D=6 \cdot 10^{16}$ sm^{-2} dozadagi In^+ ionlari bilan implantatsiya qilingan GaP(111) uchun qizdirishgacha va undan keyingi olingan In atomlarining chuqurlik h' bo‘yicha tarqalish konsentratsion profillari keltirilgan.



2-rasm. $E_0=1$ keV energiyali $D=6 \cdot 10^{16} \text{ sm}^{-2}$ dozadagi In^+ ionlari bilan implantatsiya qilingan GaP(111) uchun qizdirishgacha (1-egri chiziq) va undan keyingi (2-egri chiziq) olingan In atomlarining chuqurlik h' bo'yicha tarqalish konsentratsion profillari.


$T=950$ K ga qizdirilgandan keyin yuzaga C_{In} qiymati 20–22 at.% gacha kamayadi va 0–35 Å qalinligigacha o'zgarmaydi va $h'=40 \div 100$ Å oraliqda C_{In} 0 gacha monoton kamayadi. 3-rasmda GaP(111) yuzasida molekulyar nurli epitaksiya ($h=50$ nm) va ion implantatsiya ($h=0,35-4$ nm) usullari bilan olingan $\text{Ga}_{0.6}\text{In}_{0.4}\text{P}$ plyonkasining ASM – tasviri keltirilgan. Molekulyar nurli epitaksiya plyonkasi yuzasining notekisligi $\sim 4 \div 5$ nm ni tashkil qildi 3 a-rasm, ion implantatsiya usuli bilan olingan namunani bir necha marta qizdirib yuqori silliqlikka ega va yuzaning notekisligi ~ 2 nm ni tashkil qiladigan $\text{Ga}_{0.6}\text{In}_{0.4}\text{P}$ plyonkasi olindi 3 b-rasm.



3-rasm. GaP(111) yuzasida $d \approx 50$ nm qalinlikda MNE usuli bilan olingan (a) va $d \approx 3,5-4$ nm qalinlikda qizdirib turib ion-implantatsiya qilish orqali olingan (b) $\text{Ga}_{0.6}\text{In}_{0.4}\text{P}$ sirtiy plyonkalarining AKM – tasviri.

4-rasmda $E_0=1$ keV energiyali 10^{15} va $6 \cdot 10^{16} \text{ sm}^{-2}$ dozadagi In^+ ionlari bilan implantatsiya qilib, har bir ion-implantatsiyadan keyin 40 min davomida $T=950\text{K}$ qizdirilgan GaP ning fotoelektron spektrlari keltirilgan. Birinchi holatda yuzada $d=15-20$ nm diametrli nanofazalar ikkinchi holatda esa $\text{Ga}_{0.6}\text{In}_{0.4}\text{P}$ plyonkasi

shakllandi. Bu spektrlar valent zonadagi elektronlar joylashish holati bo'yicha zichlik taqsimoti haqida to'liq ma'lumot beradi.




4-rasm. $E_0 = 1$ keV energiyali turli dozalarda In^+ ionlari bilan implantatsiya qilingan GaP ning fotoelektron spektrlari: D, sm^{-2} : 1–0; 2– 10^{15} ; 3– $6 \cdot 10^{16}$. Har bir ion-implantatsiyadan keyin $T=950$ K ga qizdirilgan.

Toza GaP spektrining $E_{cb} \approx -8$ eV; $-2,2$ eV va 4 eV bog'lanish energiyalarida Ga ning $4p$ va $4p+4s$ holatdagi elektronlariga tegishli hamda Ga ning $4s$ holatdagi va P ning $3s$ holatdagi elektronlari qo'shib (gibridlashib) hosil qilgan maksimumlarini ko'rish mumkin (4-rasm, 1-egri chiziq). GaInP plyonkasining spektrlarida (4-rasm, 3-egri chiziq) bog'langan $4s(\text{Ga})+5p(\text{In})$, $4s(\text{Ga})+5p(\text{In})+3d(\text{P})$ va $4s(\text{Ga})+5s(\text{In})+3d(\text{P})$ holatdan elektronlarning gibridlanishi hisobiga yuzaga kelgan $E_{cb} = -1,2$ eV; $-3,3$ eV va $-5,6$ eV energiyalardagi maksimumlarni ko'rish mumkin. GaP yuzasida olingan $\text{Ga}_{0,6}\text{In}_{0,4}\text{P}$ plyonkasining spektrlarida GaP va $\text{Ga}_{0,6}\text{In}_{0,4}\text{P}$ ga tegishli bir qancha o'ziga xos o'zgarishlar kuzatiladi (4-rasm, 2-egri chiziq).

Ushbu namunalarning taqiqlangan soha kengligini aniqlash uchun yorug'lik o'tkazuvchanlik spektrlari olindi (5-rasm). Ma'lumki, o'rtacha dozada ($5 \cdot 10^{14} - 5 \cdot 10^{15} \text{sm}^{-2}$) ion-implantatsiya qilinayotgan yuza 2 xil fazadan iborat bo'ladi: yarimo'tkazgichlarning ion-legirlangan fazalari va legirlanmagan sohalari. Bizda $D = 10^{15} \text{sm}^{-2}$ dozada nanofazalarning o'rtacha yuzaviy diametri $\sim 15-20$ nm ni, fazalar orasidagi masofa esa $\sim 50-60$ nm ni tashkil qildi. 5-rasmda $K(h\nu)$ grafigidan ko'rish mumkinki, avval $h\nu$ ortishi bilan K ning qiymati o'zgarmadi, keyin keskin 0 gacha kamayib ketdi.

Egri chiziqning keskin kamaygan qismidan o'tkazilgan ekstropolyatsiyaning $h\nu$ o'qidagi qiymati ushbu materialning E_g ga teng bo'ladi. GaP(111)ning taqiqlangan soha kengligi taxminan $2,36$ eV, $\text{Ga}_{0,6}\text{In}_{0,4}\text{P}$ plyonkasi uchun $\sim 1,85$ eV, $d=20$ nm va $d=25-30$ nm $\text{Ga}_{0,6}\text{In}_{0,4}\text{P}$ nanokristall fazalari uchun mos ravishda $\sim 2,3$ eV va $\sim 2,0$ eV bo'lishini ko'rishimiz mumkin.



5-rasm. GaP(111) (1-egri chiziq), yuzaviy diametri $d \approx 15-20$ nm (2-egri chiziq) va $d \approx 25-30$ nm nanofazali GaP(111) (3-egri chiziq) hamda $\text{Ga}_{0.6}\text{In}_{0.4}\text{P}$ nanoplyonkasining yorug'lik o'tkazuvchanlik spektrlari.

1-jadvalda o'rganilayotgan namunalarning E_g va Θ qiymatlari keltirilgan.

1-jadval.

GaInP nanofaza va plyonkasi uchun nanostruktura o'lchamlari (qalinligi h va yuzaviy diametri d), E_g va Θ ning qiymatlari

O'rganilayotgan namunalar	$h, \text{Å}$	d, nm	E_g, eV	$\Theta, \%$
GaP(111)	Monokristall namuna		2,36	0
$\text{Ga}_{0.6}\text{In}_{0.4}\text{P}/ \text{GaP}(111)$	30-35	15-20	2,3	30
	30-35	25-30	2,0	70
	30-35	Plyonka (yuza to'liq qoplangan)	1,85	100

5-rasm va yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, E_g ning qiymati bir xil qalinlikdagi nanokristall fazalarda plyonkalarga nisbatan kattaroq bo'ladi. Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, nanokristall fazalarda diametri $\approx 25-30$ nm dan boshlab d ning qiymati kamayishi bilan E_g qiymati oshadi, ya'ni ularda kvant o'lchamli effektlar namoyon bo'ladi.

2-jadvalda o'rganilayotgan namunaning soha energetik, parametrlari va emission xarakteristikallari keltirilgan.

2-jadval.

GaP(111) va $\text{Ga}_{0.6}\text{In}_{0.4}\text{P}$ ning asosiy soha energetik parametrlari va emission xarakteristikallari


O'rganilayotgan namunalar	Φ, eV	E_g, eV	κ, eV	σ_m	$Y, (h\nu = 10,8 \text{ eV}) \text{ da}$
GaP(111)	5,3	2,36	2,94	1,95	$6 \cdot 10^{-3}$
$\text{Ga}_{0.6}\text{In}_{0.4}\text{P}$	5,5	1,85	3,65	1,7	$4 \cdot 10^{-3}$

bu yerda, Φ – fotoelektron chiqish ishi, quyidagi formula orqali topiladi.


$\Phi = h\nu - \Delta E$. ΔE – fotoelektronlar spektr kengligi. κ – elektronga moyillik:

$\kappa = \Phi - E_g$. σ_m – σ ning maksimal qiymati. Y – fotoelektronlarning kvant chiqishi.

6-rasmda toza GaP(111) va qizdirish orqali ion-implantatsiya hamda $E_p=800$ eV dagi σ ning σ_{800} qiymatida MNE usullari bilan olingan GaP(111) yuzasida $d \approx 50$ Å qalinlikdagi GaInP plyonkasi uchun $\sigma_{800}(\varphi)$ grafigi keltirilgan. Burchak φ namuna normaliga nisbatan aniqlanadi.



6-rasm. Toza GaP(111) (1-egri chiziq) va ion-implantatsiya (2-egri chiziq) hamda MNE (3-egri chiziq) usullari orqali olingan GaP yuzasida 50 Å qalinlikdagi $\text{Ga}_{0.6}\text{In}_{0.4}\text{P}$ plyonkasi uchun $\sigma_{800}(\varphi)$




grafigi.

7-rasm. $h\nu=10,8$ eV da olingan fotoelektron spektrlar: 1-GaP(111); 2- $\text{Ga}_{0.6}\text{Al}_{0.4}\text{P}/\text{GaP}(111)$; 3- $\text{Ga}_{0.6}\text{In}_{0.4}\text{P}/\text{GaP}(111)$.

**GaP va GaAlP hamda GaInP plonkalari bilan qoplangan GaP uchun
 σ_m va Y qiymatlari va energetik soha parametrlari**

Namuna	Plyonka qalinligi, Å	E_{CB} , eV	Interpretatsiya	Φ , eV	κ , eV	E_g , eV	σ_m	Y ($h\nu=10,8$ eV)
GaP(111)	Monokristall	- 0,8 - 2,2 - 4,1	4p(Ga) 4p+4s(Ga) 4s(Ga)+3p(P)	6,1	3,74	2,36	2,36	$6 \cdot 10^{-3}$
GaAlP/ GaP(111)	35-40	- 0,6 - 1,7 - 3,1 - 4,8	4p(Ga)+3p(Al) 4s(Ga)+3p(Al) 4s(Ga)+3p(Al)+3p(P) 4s(Ga)+3s(Al)+3p(P)	6,1	3,72	2,38	2,38	$4,8 \cdot 10^{-3}$
GaInP/GaP	40-50	-1,2 -3,3 -5,6	4s(Ga)+5p(In) 4s(Ga)+5p(In)+3p(P) 4s(Ga)+5s(In)+3p(P)	5,5	3,65	1,85	1,85	$4 \cdot 10^{-3}$


GaP va ion bombardimon qilish usuli orqali olingan GaInP plyonkalari maksimumlarining burchak holati bir-biri bilan mos keladi. Bundan ushbu holatdagi $Ga_{0.6}In_{0.4}P$ plyonkaning qat'iy epitaksial o'sishi sodir bo'ladi degan xulosa qilishimiz mumkin. 7-rasmda GaP(111) va GaP(111) yuzasida olingan $Ga_{0.6}Al_{0.4}P$ va $Ga_{0.6}In_{0.4}P$ plyonkalarining $h\nu=10,8$ eV da olingan fotoelektron spektrlari keltirilgan. Bunda plyonkalarining qalinligi mos ravishda $\sim 35-40$ Å va $\sim 40-50$ Å ni tashkil qiladi. Ko'rinib turibdiki, yupqa uch komponentli plyonkalarining elektronlar holat zichligi va energetik parametrlari GaP nikidan sezilarli farq qiladi. O'rganilayotgan namunalarning spektrlaridagi piklarning hosil bo'lish sabablari (interpretatsiyasi), shuningdek, emission va optik xususiyatlari 3-jadvalda keltirilgan. Φ –fotoelektron chiqish ishi, quyidagi formula orqali topiladi. $\Phi=h\nu-\Delta E$, ΔE – fotoelektronlar spektr kengligi. κ – elektronga moyillik: $\kappa=\Phi-E_g$. σ_m –IEE ning maksimal qiymati. Y – $h\nu=10,8$ eV da o'lchangan fotoelektronlarning kvant chiqishi. 7-rasm va 3-jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, uch komponentli plyonkalar fotoelektronlar spektridagi asosiy maksimumlar GaP ning valent sohasidagi elektronlari hamda Al va In atomlarining gibridlashishi bilan bog'liq. Olingan ushbu “yarimo'tkazgich – dielektrik” plyonkalarining chegara qatlamlari o'ziga xos noyob fizik-kimyoviy xususiyatlarga ega, ulardan maqsadli foydalanish yangi avlod qurilmalarini yaratishga imkon beradi. Bunday holda, kristall strukturalarning o'ziga xosligi va panjara parametrlarining yaqinligi, shuningdek, o'stirilgan plyonkalarining harorat ta'sirida kengayish koeffitsiyentlarining yaqinligi kabi alohida talablar qo'yiladi. Agar plyonkalar panjara parametrlari o'rtasida sezilarli farq bo'lsa, muvofiqlashtiruvchi qatlamlarni yaratish kerak bo'ladi. 8-rasmdan ko'rish mumkinki, hattoki, xona haroratida ham plyonka-taglik o'tish chegarasida GaP(GaAs) va CaF_2 birikmalarining parchalanishi va ularning atomlari orasida o'zaro diffuziya sodir bo'ladi.



8-rasm. 1-GaP/CaF₂(111) va 2-GaAs/CaF₂ sistemalari uchun F atomlarining chuqurlik bo'yicha tarqalish profillari.

Qizdirishdan oldin GaP/CaF₂ uchun o'tish qatlamining qalinligi ~ 100 Å ni, GaAs/CaF₂ uchun esa ~ 250 Å ni tashkil qildi. T = 850 – 950 K ga qizdirilgandan keyin o'tish qatlami GaP/CaF₂ uchun ~ 150 Å gacha, GaAs/CaF₂ uchun esa ~ 400 Å gacha ortdi. GaAs/CaF₂ sistemasi uchun muvofiq lashtiruvchi o'tish qatlamini hosil qilish kerak bo'ladi. Buning uchun, CaF₂ ning "a" (panjara doimiysi)ni ~ 5,46 Å dan ~ 5,65 Å gacha deyarli monoton orttirish talab etiladi. Bunga ion-implantatsiya usuli yordamida erishish mumkin. Implantatsiya E₀=0,5–3 keV energiyali D=D_n to'yinish dozasi dagi Mg⁺, Ba⁺ va Sr⁺ ionlari bilan olib boriladi. Sr⁺ ionlari implantatsiya qilganda eng ishonchli o'tish qatlami hosil bo'ladi.

9-rasmda E₀=1 keV energiyali D=6·10¹⁶ sm⁻² dozadagi Sr⁺ ionlari bilan implantatsiya qilib, turli harotarlarda qizdirishdan keyin olingan CaF₂ uchun C_{Sr} ning chuqurlik h ga bog'liqlik grafigi keltirilgan.




9-rasm. E₀ = 1 keV energiyali D = 6 · 10¹⁶ sm⁻² dozadagi Sr⁺ ionlari bilan implantatsiya qilingan CaF₂ da Sr atomlari konsentratsiyasining chuqurlik bo'yicha tarqalishiga qizdirishning ta'siri.

Har bir haroratda 30 daqiqa davomida qizdirildi. Qizdirishdan oldin implantatsiya qilingan atomlarning ko'p qismi yuzada va 40–45 Å chuqurlikgacha yuzaga yaqin sohada joylashishini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun barcha Sr atomlari matritsa atomlari bilan kimyoviy bog'ga kirishmaydi. T=300 K haroratgacha Sr atomlarining tarqalish profillari sezilarli o'zgar olmaydi. T=700 K da qizdirish sirtidagi Sr atomlari konsentratsiyasining biroz oshishiga olib keldi, bu esa bog'lanmagan Sr atomlarining sirtiga diffuziyasi bilan bog'liq.

T=900 K da barcha Sr atomlari matritsa atomlari bilan kimyoviy bog'ga kirishadi va epitaksial manokristall plyonka hosil bo'ladi. Yuzaning taxminiy tarkibi $\text{Ca}_{0,6}\text{Sr}_{0,4}\text{F}_2$ ko'rinishda bo'ladi. Chuqurlik ortib borishi bilan Sr konsentratsiyasi monoton kamayadi, Ga esa ortadi. $d \approx 75\text{--}80$ Å da tarkibda Sr miqdori 0 ga yaqinlashadi. $\text{Ca}_{0,6}\text{Sr}_{0,4}\text{F}_2$ strukturaning "a" qiymati GaAs plyonkasining "a" qiymatiga yaqinlashib, $\sim 5,71$ Å ni tashkil qiladi.


“Nanokontaktlar, tarkibi va fizik xususiyatlari o'zgaruvchan yuzalar, ko'p qatlamli geteroepitaksial sistemalar olish uchun ion va elektron bombardirovkani qo'llashning istiqbollari” deb nomlangan to'rtinchi bobda quyidagi tadqiqot natijalari keltirilgan: GaP(111) yuzasida nanokontaktlar olishda ion bombardirovka usulidan foydalanish; kichik energiyali elektronlar bombardirovkasining GaP(111) yuza tarkibi va tuzilishiga ta'siri; turli xil ta'sirlar GaP ning hajmiy (ρ_v) va sirtiy solishtirma qarshiliklariga (ρ_c) ta'siri; arsenid asosida $A^{III}B^V$ tipidagi ko'p qatlamli nanoo'lchamli geteroepitaksial sistemalar olish va ularning qo'llanilish istiqbollari.

Tadqiqot obyekti sifatida monokristall GaP(111) namunasini tanlab oldik. Ushbu namuna barcha texnologik jarayonlar (qizdirish, Ni atomlarini o'tqazish, ion bombardimon qilish) olib boriladigan o'ta yuqori vakuumli ($P=10^{-7}$ Pa) universal qurilmaga o'rnatildi. GaP(111) yuzasida o'ta yupqa kontaktlar olish uchun Ar^+ ionlari bilan oldindan bombardimon qilindi.



10-rasm. GaP(111) ning $D=2 \cdot 10^{17} \text{ sm}^{-2}$ dozada $E_0=2 \text{ keV}$ energiyali Ar^+ ionlari bilan bombardirovkadan oldingi (1) va keyingi (2) oje-spektrlari.


Tadqiqot oje-elektron spektroskopiya (OES) va ion bombardimon qilish usullaridan foydalanib olib borildi. GaP(111) namunasini ion bombardimon qilishdan oldin $P \approx 10^{-7}$ Pa vakuumda $T=900$ K haroratda ~ 4 soat davomida termik tozalandi. 10-rasmda toza GaP(111) va $D=D_n=2 \cdot 10^{17}$ sm^{-2} dozada $E_0=2$ keV energiyali Ar^+ ionlari bilan yuzasiga perpendikulyar bombardimon qilingan GaP ning oje-spektrlari keltirilgan.



11-rasm. Ni–GaP(111) sistemasi uchun Ni atomlarining chuqurlik bo‘yicha tarqalish profillari: 1–toza GaP(111); 2– $D=2 \cdot 10^{17}$ sm^{-2} dozada $E_0=2$ keV energiyali Ar^+ ionlari bilan bombardimon qilingan GaP(111); 3–ion–bombardimon qilingan namuna $T=850$ K qizdirilgandan keyin.


